

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-dekabr 2019 yil

E'tibor bering:

2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 54,4 % tashkil etdi.


3645 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.

2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,6 birlikni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabrda 3645 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (35,6 %), sanoat tarmog'ida (20,3 %), qurilish tarmog'ida (14,7 %), qishloq, ormon va baliq xo'jaligida (9,8%), yashash va ovqatlanishda (6,8 %) va boshqa tarmog'larda (9,3%) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	12364	15050	2686
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	2177	3645	1468
YaHM	%	55,2	54,4	-0,8
Sanoat	%	18,7	22,2	3,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,1	98,5	-0,6
Investitsiya	%	21,7	32,1	10,4
Qurilish	%	84,6	89,1	4,5
Savdo	%	82,9	87,6	4,7
Xizmatlar	%	56,9	54,3	-2,6
Yuk tashish	%	91,8	86,0	-5,8
Yuk aylanmasi	%	90,7	88,8	-1,9
Yo'lovchi tashish	%	95,9	95,9	0
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,9	97,1	0,2
Eksport	%	9,9	20,8	10,9
Import	%	60,3	63,5	3,2


Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2018 y.	yanvar-dekabr 2019 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2177	3645
Amudaryo	155	251
Beruniy	126	251
Qorao'zak	68	109
Kegeyli	50	125
Qo'ng'iro't	126	230
Qonliko'l	44	93
Mo'ynoq	73	150
Nukus	121	159
Taxiatosh	95	130
Taxtakopir	32	62
To'rtko'l	191	371
Xo'jayli	104	190
Chimboy	70	146
Shumanay	55	105
Ellikqala	115	215
Nukus shahri	752	1058

2019 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p Nukus shahrida - 1058 ta, To'rtko'l tumanida - 371 ta, Amudaryo tumanida - 251 ta, Beruniy tumanida - 251 ta, Qo'ng'iro't tumanida - 230 ta, Ellikqala tumanida - 215 ta, Xo'jayli tumanida - 190 ta, Chimboy tumanida - 146 ta, Kegeyli, Mo'ynoq, Taxiatosh, Shumanay, Qonliko'l, Nukus tumanida, va Qorao'zak tumanida - 150-93 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, Eng past ko'rsatkichni Taxtakopir tumanida -62 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar



2019 yil yanvar-dekabr holatiga shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Nukus sh. - 29,0%, To'rtko'l tumani - 10,2 %, Amudaryo tumani - 6,9 %, Beruniy tumani - 6,9 %, Qo'ng'iro't tumani - 6,3%, Ellikqala tumani – 5,9 %, Xo'jayli tumani - 5,2 %, Nukus tumani 4,4 %, Mo'ynoq tumani - 4,1 %, Chimboy tumani - 4,0 %, Taxi'atosh tumani - 3,6 %, Kegeyli tumani - 3,4 %, Qorao'zak tumani - 3,0 %, Shumanay tumani - 2,9 %, Qonli'ko'l tumani - 2,6 %, eng past ko'rsatkich Taxtaro'pir tumanida - 1,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2018 y.	yanvar-dekabr 2019 y.
Jami	2177	3645
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	345	358
Sanoat	501	741
Qurilish	420	536
Savdo	450	1297
Tashish va saqlash	84	126
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	145	247
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	52	54
Axborot va aloqa	23	68
Boshqa turdagi xizmatlar	157	218

2019 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p **savdoda** 1297 ta, shuningdek :

Sanoatda - 741 ta.;


Savdoda - 1297 ta.;

Qurilishda - 536 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 358 ta.;

Boshqa xizmatda - 713 ta ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar **savdoda** - 1297 ta, **Sanoatda** - 741 ta, **Qurilishda** - 536 ta, **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** - 358 ta, **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda** - 247 ta, **Tashish va saqlashda** - 126 ta, **Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** - 54 ta va **boshqa turdagi xizmatlarda** - 286 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-dekabr 2019 y.	yanvar-dekabr 2018 y.	farq (+-)
Nukus shahri	1058	752	306
To'rtko'l	371	191	180
Amudaryo	251	155	96
Beruniy	251	126	125
Qo'ng'iro't	230	126	104
Xo'jayli	190	104	86
Mo'ynoq	150	73	77
Chimboy	146	70	76
Taxiatosh	130	95	35
Kegeyli	125	50	75


2019 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Nukus shahrida – 1058 ta, To'rtko'l tumanida - 371 ta, Amudaryo tumanida - 251 ta, Beruniy tumanida - 251 ta, Qo'ng'iro't tumanida – 230 ta, Xo'jayli tumanida - 190 ta, Chimboy tumanida –146 ta, Taxiatosh tumanida –130 ta, Kegeyli tumanida - 125 ta, Mo'ynoq tumanida bu ko'rsatkich 150 ta ni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-dekabr kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Nukus tumanida 20,8 birlikda, Qorao'zak tumanida 16,3 birlikda, Qonliko'l tumanida 16,9 birlikda, Nukus shahrida 15,0 birlikda, To'rtko'l tumanida 14,2 birlikda, Mo'ynoq tumanida 13,3 birlikda, Kegeyli tumanida 11,7 birlikda, Ellikqala tumanlarida 11,3 birlikda, Taxiatosh tumanlarida 11,2 birlikda, Beruniy tumanida 10,3 birlikda, Shumanay tumanida 9,2 birlikda, Amudaryo tumanida 9,2 birlikda, Chimboy tumanida 9,2 birlikda, Qo'ng'iro't tumanida 8,3 birlikda, va Xo'jayli tumanlarida 7,4 birlikda, Taxtako'pir tumanida 6,9 birlikda, bo'lib tumanlarida aniqlandi.

2019 yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bóyicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,1 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 11,6 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 0,5 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 22,2 %, qurilishda - 89,1 %, investitsiyada - 32,1 %, savdoda - 87,6 %, eksportda - 20,8 %, importda - 63,5 % va xizmatlar sohasidagi - 54,3 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaHM dagi ulushining o'sish dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %

2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHM dagi ulushi 54,4 % ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-dekabrida 55,2 %).



Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan % da)



2019 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qoraqalpog`iston Respublikasi	22,2	89,1	54,3	32,1
Amudaryo	44,2	95,6	94,6	64,9
Beruniy	63,7	99,7	97,4	80,9
Qorao'zak	99,9	99,5	97,8	95,3
Kegeyli	56,7	78,5	96,0	49,8
Qo'ng'iro't	75,2	48,1	30,4	13,4
Qonliko'l	41,3	93,9	97,5	68,8
Muynoq	11,1	87,2	95,4	9,5
Nukus	83,9	99,7	96,9	74,9
Taxiatosh	11,3	49,2	86,6	5,6
Taxtako'pir	99,7	86,3	96,8	47,2
To'rtko'l	67,3	99,6	94,7	24,1
Xo'jayli	45,6	95,8	77,9	80,2
Chimboy	90,7	99,7	93,2	65,6
Shumanay	100,0	99,5	96,9	83,1
Ellikqala	100,0	95,2	94,3	34,0
Nukus shahri	6,8	97,3	40,7	42,8

Shahar va tumanlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Shumanay va Ellikqala tumanlari (100,0%) tashkil etmoqda, Qorao'zak (99,9%) Taxtako'pir (99,7%), Chimboy (90,7%), Nukus tuman (83,9 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda—Beruniy (99,7%), Nukus tuman (99,7%), Chimboy (97,7%), To'rtko'l (99,6%), va Shumanay (99,5%), tumanlari va tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida. Qorao'zak (97,8 %), Qonliko'l (97,5 %), Beruniy (97,4 %), Shumanay (96,9 %), Taxtako'pir (96,8 %), va To'rtko'l (94,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Qorao'zak (95,3%), Shumanay (83,1%), Beruniy (80,9 %), Xo'jayli (80,2%), Chimboy (65,6 %), Amudaryo (64,9 %), va Kegeyli (49,8 %), tumanlari tashkil etadi.

2019 yilning yanvar–dekabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan **sanoat mahsuloti** ishlab chiqarish hajmi 2825,5 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 22,2 %);



– 2706,3 mlrd. so'mlik **investitsiyalar** (umumiy investitsiyalar hajmining 32,1 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar–dekabr nisbatan 114,1 % ni tashkil qildi;



– 2853,8 mlrd. so'mlik **qurilish** ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,1 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur`ati 127,0 % ni tashkil qildi;



– 3031,7 mlrd.so'mlik **xizmatlar** ko'rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 54,3 %), 2018 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur`ati 106,8 % ni tashkil qildi;



– **chakana tovar aylanmasi** umumiy hajmining 87,6 % yoki 4936,7 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 91,2 mln. AQSh dollari (umumiy **eksport** hajmining 20,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 46,3 mln. AQSh dollariga yoki 2,0 martaga ko'p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,5 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 88,8 %) ko'payishi taminlandi;




– **yo'lovchi aylanmasining** esa 3,5 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 97,1 %) ko'payishi taminlandi;

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlarning, jami eksport hajmidagi ulushi, %)




2019 yil yanvar-dekabr holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Qorao'zak, Shumanay, Taxtako'pir va Chimboy tumanlarida –100,0 %, Nukus va Qo'ng'iro't tumanlari –99.9 %, Ellikqala tumani - 99,5 %, Mo'ynoq tumani –99,3 %, Qonliko'l tumanlari - 99,2 %, Taxiato'sh tumani - 99,0 %, To'rtko'l tumani - 98,8 % va Beruniy tumani –98,6 %, Kegeyli tumani - 81,9 %, Xo'jayli tumani - 78,5 %, Amudaryo tumani - 31,8 % eng past ko'rsatkichni Nukus shahrida - 2,2 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabrda shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (551,8 mlrd.so'm), Ellikqala (254,5 mlrd.so'm), Qo'ngirot (241,1 mlrd.so'm), Qorao'zak (234,4 mlrd.so'm), Chimboy (227,0 mlrd.so'm), hissasiga to'g'ri keladi. Taxtako'pir (52,9 mlrd.so'm), Mo'ynoq tumani (44,2 mlrd so'm), sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqala (100,0%), Qorao'zak, (99,9%), Taxtako'pir (99,7%), Chimboy (90,7%), Nukus r (83,9%), Qo'ng'iro't (75,2%), To'rtko'l (67,3%), Beruniy (63,7%), Kegeyli (56,7%), Xo'jayli (45,6%), Amudaryo (44,2%), Qonliko'l (41,3%) tumanlar. Taqxiatosh (11,3%), Mo'ynoq (11,1%) va Nukus shahrida (6,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib

2019 yil yanvar-dekabrda shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (1172,1 mlrd.so'm), Xo'jayli (524,1 mlrd.so'm), Beruniy (523,1 mlrd.so'm), To'rtko'l (453,2 mlrd.so'm), va Qo'ng'iro't (380,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2019 yil yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (1101,3 mlrd.so'm), Amudaryo (246,0 mlrd so'm), To'rtko'l (225,8 mlrd so'm), Beruniy (190,5 mlrd.so'm), Xo'jayli (176,5 mlrd.so'm), Qo'ngirot (169,0 mlrd.so'm), Ellikqal'a (138,1 mlrd.so'm) va eng kam Mo'ynoq tumanida (40,9 mlrd.so'm) qayd etildi.




2019 yil yanvar- dekabrda shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (1373,4 mlrd.so'm), To'rtko'l (249,8 mlrd.so'm) va Beruniy (195,1 mlrd.so'm), Qo'ng'iro't (191,7 mlrd.so'm), Amudaryo (188,0 mlrd.so'm), va Xo'jayli (187,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 51 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalariga - 11 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 21,6 %), qurilish - 9 (17,6 %), savdo - 18 (35,3 %), xizmatlar sohasi - 9 (17,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 4 (7,9 %) tashkil etdi.

2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari b'oyicha taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Nukus shahrida - 33,3 %, Ellikkala –11,8 %, To'rtko'l – 7,8 % , Qo'ng'iro't - 7,8%, Amudaryo – 7,8% va Beruniy, Nukus r, tumanlarida - 5,9 %, Mo'ynoq, Xo'jayli, Kegeyli, - 3,9 % va Qorao'zak, Qonliko'l, Taxtakupir, Shumanay tumanlarida – 2,0 %, Taxiato'sh, Chimboy, tumanlarida - 0,0 % ni tashkil qildi.


**2019 yil IV chorak bóyicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan
mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar
bóyicha taqsimlanishi, %**



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning iqtisodiy vaziyatni – qulay 54,5 % va qoniqarli 45,5 %, deb hisoblashini va mos ravishda savdo sohasida – qulay 61,1 % va qoniqarli 38,9 %, xizmatlar sohasida – qulay 22,2 %, va qoniqarli 66,7 %, qoniqarsiz 11,1%, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – qoniqarli 100,0 %, qurilish – 22,2 %, va 77,8 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatlar – 11,1 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil IV chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 36,4 % sanoat korxonalari, 33,3 % – xizmatlar, 33,3 % – qurilish, 72,2 % – savdo, va 50,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: R.Sharibaev

Tel.: (861) 222-18-01, (0371)230-82-07,